

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.I.12.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTE

XIDIROV MUZAFFAR ABDIMO‘MINOVICH

**TIJORAT BANKLARI KREDIT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH
ORQALI ULARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASH
YO‘LLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2026-yil

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии
(Doctor of Philosophy) по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy
(Doctor of Philosophy) on economical sciences**

Xidirov Muzaffar Abdimo'minovich

Tijorat banklari kredit faoliyatini takomillashtirish orqali ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash yo'llari3

Хидиров Музаффар Абдимуминович

Пути обеспечения финансовой устойчивости коммерческих банков путем совершенствования их кредитной деятельности.....33

Khidirov Muzaffar Abdimuminovich

Ways to ensure the financial stability of commercial banks by improving their lending activities.....65

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....72

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.I.12.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTE

XIDIROV MUZAFFAR ABDIMO‘MINOVICH

**TIJORAT BANKLARI KREDIT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH
ORQALI ULARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TAMINLASH
YO‘LLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2026-yil

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD/Iqt5094 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.terdu.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Bozorov Ruslan Xamdamovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Bobokulov To'likin Ibodullayevich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Umidjon Uralovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.1.12.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil " 7 " 05 soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (876) 221-74-55, faks: (876) 221-71-17, e-mail: termizdu@mail.uz

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (375 — raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (876) 221-74-55, faks: (876) 221-71-17, e-mail: termizdu@mail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil " 21 " 04 kuni tarqatildi.
(2026 yil " 21 " 04 dagi № 6 raqamli reyestr bayonnomasi).



A.X. Toshqulov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

U.T. To'likov,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

S.J. Gadoyev,
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Xalqaro amaliyotda tijorat banklari tomonidan moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda bankning umumiy faoliyatlari orasida kredit faoliyati samaradorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki banklarda foizli daromadlarning katta ulushi kredit faoliyati orqali shakllanadi va shunga mos ravishda aktivlar tarkibida kreditlar ulushi yuqori darajaga ega. "Xitoyning ICBC bankida kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash xarajatlarining sof foizli daromadlarga nisbati 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 1,2 foizli punktga pasaygan holda 19,7% ni tashkil qilgan bo'lsa, bankda ushbu xarajatlarni chegirgandagi sof foizli daromadlarning operatsion daromadlardagi ulushi 0,3 foizli punktga ko'tarilib 77,5% ga yetgan"¹. "Rossiya Sberbankida kreditlarning aktivlardagi ulushi 2020-yildagi 64,9% dan 2024-yilda 72,0% ga yetgan holda, mos davrda muammoli kreditlarning ulushi 1,3 foizli punktga pasayib 3,4% ni va yaratilgan zaxiralarning brutto kreditlardagi ulushi esa 1,9 foizli punktga pasayib 4,6% ni tashkil etgan"². Ushbu holatlar banklarning kredit faoliyati samaradorligini ta'minlash orqali banklar moliyaviy barqarorligini oshirish borasida yetakchi xorijiy davlatlar tajribasini o'rganishga va ularning uslubiy hamda amaliy jihatlarini baholashga doir ehtiyojni yuzaga chiqaradi.

Jahon ilm-fanida banklarda kredit faoliyati samaradorligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligidan dalolat beradi. Tijorat banklari kredit faoliyati ko'lamini kengaytirish, kredit faoliyati rentabelligini bankning boshqa faoliyat turlaridan kam bo'lmagan darajada saqlashni ta'minlash, kredit xizmatlarini raqamlashtirish vositasida kredit bahosini pasaytirish orqali raqobatbardoshlikni ta'minlash, kreditlarni turli yo'nalishlarda diversifikatsiya qilish orqali risklarni pasaytirish imkoniyatlarini baholash, kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholashga doir xarajatlarni pasaytirish maqsadida kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish, kreditlar bo'yicha zaxiralarning muammoli kreditlarga nisbatini optimal darajasini baholash orqali me'yorni belgilash, milliy iqtisodiy manfaatlarga mos holatda resurslar jalb qilish orqali bankda passivlar tarkibini oqilona shakllantirish hisobiga sof foizli spread va sof foizli marja ko'rsatkichlari darajasini oshirish kabi jihatlarga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

O'zbekistonda tijorat banklari kredit faoliyatini takomillashtirish orqali ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha belgilangan vazifalar, avvalo, kredit portfeli sifatini oshirish, riskka asoslangan yondashuvni kuchaytirish va real sektorni maqsadli kreditlashni kengaytirish orqali bank tizimi barqarorligini

¹ Xitoyning ICBC bankining 2024-yilgi hisobot ma'lumotlari (https://v.icbc.com.cn/userfiles/Resources/ICBCLTD/download/2025/Announcement20250425_1.pdf).

² Rossiya Sberbankining 2020-2024-yilgi hisobot ma'lumotlari (https://esg-library.mgimo.ru/publications/godovoy-otchet-sbera2024/?utm_source=google.com&utm_medium=organic&utm_campaign=google.com&utm_referrer=google.com)

mustahkamlashga qaratilgan. Amalda xalqaro standartlarga mos risk-menejment tizimlarini joriy etish, muammoli kreditlar ulushini qisqartirish, kapital yetarliligi va likvidlik koeffitsiyentlarini bosqichma-bosqich oshirish hamda kredit oqimi keskin kamayishining oldini oluvchi me'yoriy bazani takomillashtirish chora-tadbirlari izchil amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilishning strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmonida: "kreditlashning o'sish sur'atlari mo'tadilligini ta'minlash va kredit portfeli sifatini yaxshilash; banklar tomonidan davlat korxonalari va tashkilotlari faoliyatini transformatsiya qilishda tijorat asosida faol ishtirok etish; eng yaxshi xalqaro tajriba asosida depozitlarni himoyalash tizimini izchillik bilan rivojlantirish; harakatsiz kreditlarga amaliy ko'maklashish orqali ularning kredit portfelleri sifatini yaxshilash bo'yicha choralar ko'rilishi" kabilar bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlovchi chora-tadbirlar sifatida sanalgan³. Shu bois, O'zbekistonda tijorat banklari kredit faoliyatini takomillashtirish orqali ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning uslubiy asoslari, ekonometrik baholash modellari va institutsion mexanizmlarini ilmiy tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida", 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-son "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2017-yil 12-sentyabrdagi PQ-3270-son "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va ushbu sohadagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tijorat banklari kredit faoliyatini takomillashtirish orqali ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy va amaliy hamda uslubiy jihatlarini ko'plab xorijlik iqtisodchi olimlar, jumladan, V.Ribin, M.Passel, O.Lavrushin, T.Dolgacheva, G.Ruchkinoy, O.Mosolova, Dj.Sinki, V.Usoskin, L.Wang, W.Lu, N.Malhotra, H.Do, T.Ngo, Q.Phung,

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilishning strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992 sonli Farmoni.

A.Demin, M.Boyle, J.Crook, R.Hamilton, L.Thomas, S.Singh, B.Basuki, R.Setiawan⁴ va boshqalar o‘zlarining ilmiy izlanishlarida tadqiq qilgan.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Sh.Abdullayeva, O.Iminov, B.Berdiyarov, J.Isakov, I.Alimardonov, B.Abdug‘aniyev, K.Muxamedjanov, D.Abdikarimova, F.Xolmamatov, A.Norov, B.Usmonov, O.Melikov, Sh.Abdunazarov, S.Gadoyev, N.Ismatov, R.Maxmudov, H.Xo‘jayorov, R.Bozorov⁵ va boshqalarning ilmiy va o‘quv-uslubiy ishlarida tadqiqot mavzusiga doir jihatlar o‘z aksini topgan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti

⁴ Рибин В.И. Кредит и расчеты в условиях реформы. – М.: Финансы, 1970.; Пассел М.А. «Заем, кредит, ссуда» – М.: «Денги и кредит», №4, 1999.; Лаврушин, О.И., Афанасьева О.Н. Банковское дело: современная система кредитования: учебное пособие. – 7-е изд., перераб. и доп. – Москва: КНОРУС, 2021. – 358 с.; Долгачева Т. С. Развитие кредитования как фактора обеспечения воспроизводства в сельском хозяйстве. Автореферат дисс...канд.экон.наук: 08.00.05 / Т. С. Долгачева – Воронеж, 2015.; Банковское кредитование: учебное пособие / под ред. Г.Ф.Ручкиной. – Москва: Проспект, 2020.; Мосолова О.В. Развитие залогового механизма в системе кредитования. Автореферат на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Москва, 2013. – 24 с.; Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. пер. с англ. - Дж. Синки, М. Алтина Бизнес букс, 2007-1018 с.; Усоскин В.М. «Современный коммерческий банк»: управление и операции / – М: ИПТС . «Вазер-Ферро», 2004. – 78 с.; Wang, L.; Lu, W.; Malhotra, N.K. Demographics, attitude, personality and credit card features correlate with credit card debt: A view from China. J. Yecon. Psychol. 2011, 32, 179–193.; Do H., Ngo T., Phung Q. The effect of non-performing loans on profitability of commercial banks: Case of Vietnam //Accounting. – 2020. – Т. 6. – №. 3. – S. 373-386.; Demin A.N., Boyle M., Crook J., Hamilton R., Thomas L. Methods for Credit Scoring Applied to Slow Payers in Credit Scoring and Credit Control. Oxford: Oxford University Press. 1992; Singh S.K., Basuki B., Setiawan R. The effect of non-performing loan on profitability: Empirical evidence from Nepalese commercial banks // The Journal of Asian Finance, Economics and Business. – 2021. – Т. 8. – №. 4. – S. 709-716.

⁵Abdullayeva Sh.Z. “Bank risklari sharoitida tijorat banklarining kredit portfelini diversifikatsiyalash” i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozil. diss. avtoref. – Toshkent, 2000. 43-b.; O.K.Иминов. Кредитный механизм в современных условиях. Монография – Ташкент, ТГЕУ, 2000 – 102 с.; Berdiyarov B.T. “O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarining likvidiligi va to‘lov qobiliyatini ta‘minlash masalalari” i.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozil. diss. avtoref. – Toshkent, 2020 – 17-19 b.; Isakov J.Ya. “Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda kredit samaradorligini oshirish”. i.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozil. diss. avtoref. – Toshkent, 2017. – 28 b.; Alimardonov I.M. “Kichik biznes subyektlarini kreditlashning uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish” i.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozil. diss. avtoref. – Toshkent, 2018 – 28 b.; Abdug‘aniyev B.A. “Moliyaviy manbalar va bank kreditlarining samaradorligi muammolari” i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozil. diss. avtoref. – Toshkent, 2003 – 20 b.; Muxamedjanov K.A. «Пути совершенствования управления кредитным портфелем и кредитными рисками коммерческого банка» i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozil. diss. avtoref. – Toshkent, 2010 – 23 b.; Abdikarimova D.R. “Bank kreditlari garov ta‘minotini baholash metodologiyasini takomillashtirish” i.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozil. diss. avtoref. – Toshkent, 2023 – 36 b.; Xolmamatov F.K. “Tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish” i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozil. diss. avtoref. – Toshkent, 2019 – 26 b.; Norov A.R. “Tijorat banklarining tadbirkorlik subyektlarini kreditlash metodologiyasini takomillashtirish” i.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozil. diss. avtoref. – Toshkent, 2022 – 34 b.; Usmonov B.S. “Tijorat banklari uzoq muddatli kreditlarining samaradorligini oshirish yo‘llari” i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozil. diss. avtoref. – Toshkent, 2021 – 32 b.; Melikov O.M. “Tijorat banklari kredit va depozit xizmatlari amaliyotini takomillashtirish yo‘llari” i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozil. diss. avtoref. – Toshkent, 2023 – 24 b.; Abdunazarov Sh.A. “Banklarning jismoniy shaxslarni kreditlash amaliyotini takomillashtirish” i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozil. diss. avtoref. – Toshkent, 2022 – 26 b.; Gadoyev S.J. “O‘zbekistonda kredit mexanizmining metodologik va amaliy asoslarini takomillashtirish” i.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozil. diss. avtoref. – Toshkent, 2024 – 32 b.; Ismatov N.R. “Bank kreditlari foiziga ta’sir etuvchi omillarni baholashning ustuvor yo‘nalishlari” i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozil. diss. avtoref. – Toshkent, 2024 – 26 b.; Maxmudov R.H. “Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash mexanizmini takomillashtirish” i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozil. diss. avtoref. – Toshkent, 2024 – 32 b.; Xo‘jayorov H.B. “Tijorat banklarida kreditlash xizmatlari samaradorligini oshirish yo‘llari” i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozil. diss. avtoref. – Toshkent, 2024 – 25 b.; Bozorov R.X. “Bank resurslaridan foydalanishda samarali kreditlash mexanizmlarini qo‘llash orqali aholi daromadlari barqarorligini ta‘minlash” i.f.d. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozil. diss. avtoref. – Toshkent, 2025 – 32 b.

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan kredit faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tijorat banklari kredit faoliyatini takomillashtirishning nazariy asoslarini va moliyaviy barqarorligini baholashning uslubiy jihatlarini tadqiq qilish;

kredit faoliyati orqali tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashga ta'sir etuvchi omillar o'rganish;

milliy iqtisodiyotda tijorat bank kredit faoliyatini bank moliyaviy barqarorligiga ta'sirini amaliy holatini tahlil qilish;

xorijiy davlatlar tajribasi asosida banklar kredit faoliyatini ularning moliyaviy barqarorligiga ta'sirini tadqiq qilish;

banklarda kreditlash faoliyati samaradorligini oshirish va bu orqali ularda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga doir ilmiy-amaliy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida O'zbekiston va xorijiy davlatlar tijorat banklarining kreditlash faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmetini tijorat banklarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda amalga oshiriladigan kredit faoliyati bilan bog'liq jarayonlarda sodir bo'ladigan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy abstraksiya, analiz va sintez, mantiqiy fikrlash, tarkibiy va qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistika, induksiya va deduksiya hamda ekspert baholash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tijorat banklari kredit portfelidagi "substandart" tasnifidagi kreditlarning miqdori va ulushini banklar uchun maqbul darajadagi maksimum chegarasidan oshirmagan holda boshqarish orqali ularni tartibga solish hisobiga sof foydani yuqori darajada shakllanishi evaziga bankda rentabellikni ta'minlash imkoni asoslab berilgan;

davlat ulushi mavjud bo'lgan banklar tomonidan tijorat kreditlari taklifini ko'paytirish va ularni kredit portfelida ulushini oshirish hamda kredit foiz stavkalarini pasaytirish uchun ushbu kreditlarni bozor tamoyillari asosida va milliy iqtisodiy manfaatlarga mos holatda resurslar bilan ta'minlashda depozitlarning aktivlarga nisbatini oshirish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

tijorat banklari tomonidan kreditlar bo'yicha daromadlilik darajasini, ya'ni kreditlar bo'yicha foizli daromadlarning o'rtacha umumiy kreditlar hajmiga nisbatini oshirish maqsadida bank passivlari tarkibida kreditlar bo'yicha majburiyatlar yetarli darajada bo'lishiga erishish hamda u bilan imtiyozli kreditlarning umumiy kreditlardagi ulushining optimal darajasi o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash zarurligi asoslangan;

kredit riskini kamaytirish maqsadida mijoz va birgalikda qarz oluvchi mavjud kreditlarining kredit so'ndirish jadvali bo'yicha eng yuqori darajadagi to'lov summasini inobatga olish, boshqa kreditlar bo'yicha kafillik holatlarini aniqlash hamda kafillik holatlaridagi ishtirok etuvchilar sonidan kelib chiqib ularda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan majburiyatlar ehtimolini baholash orqali kredit yukini hisoblash taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

banklarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda kredit faoliyatini takomillashtirish borasidagi ilmiy-nazariy qarashlarning amaliy ahamiyatiga baho berilgan;

“substandart” kreditlarni tartibga solish orqali bankda kreditlar bo'yicha zaxiralarni muammoli kreditlarga nisbatini boshqarish imkoniyati mavjudligi ochib berilgan;

kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash xarajatlarini kreditlar bo'yicha foizli daromadlarga nisbatini hisoblash uslubi orqali kredit faoliyati samaradorligi baholash asoslab berilgan;

kredit faoliyatini samaradorligi ta'minlashga ta'sir qiluvchi omillar ikki guruhga bo'lingan holda tadqiqi olib borilgan va xulosalar keltirilgan;

mehnat migrantlariga kredit ajratishni samarali mexanizmini yaratish orqali milliy iqtisodiyotda kreditga bo'lgan talabni oshirish orqali kredit bozori hajmini kengaytirish imkoniyatlari asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqot natijalari ishonchliligi unda qo'llanilgan usul va yondashuvlarning mantiqqa va maqsadga mosligi, kredit faoliyatini takomillashtirishning ilmiy nazariy asoslarining tadqiq etilganligi, foydalanilgan adabiyotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar hamda internet ma'lumotlarining rasmiyligi, tahlilda foydalanilgan ma'lumotlar tegishli hisobot manbalaridan olinganligi, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar tegishli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy-uslubiy tavsifdagi xulosa va takliflardan kredit faoliyatini takomillashtirish orqali tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan nazariy-metodologik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ilgari surilgan amaliy-uslubiy tavsifdagi xulosa va takliflardan bank kredit faoliyati orqali moliyaviy barqarorligini ta'minlashga doir kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashga yo'naltirilgan kredit faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar asosida:

tijorat banklari kredit portfelidagi “substandart” tasnifidagi kreditlarning miqdori va ulushini banklar uchun maqbul darajadagi maksimum chegarasidan oshirmagan holda boshqarish orqali ularni tartibga solish hisobiga sof foydani yuqori darajada shakllanishi evaziga bankda rentabellikni ta'minlash taklifi

“Mikrokreditbank” ATB amaliyotiga joriy etilgan (“Mikrokreditbank” ATBning 2025-yil 5-martdagi 27/4486-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida kreditlar bo’yicha zararlarni baholash miqdorining foizli sof daromadga nisbati 2024-yil 1-iyul holatiga 76,8 foizni tashkil etib, avvalgi yilning mos davriga nisbatan 13,1 foiz punktga pasaygan;

davlat ulushi mavjud bo’lgan banklar tomonidan tijorat kreditlari taklifini ko’paytirish va ularni kredit portfelida ulushini oshirish hamda kredit foiz stavkalarini pasaytirish uchun ushbu kreditlarni bozor tamoyillari asosida va milliy iqtisodiy manfaatlarga mos holatda resurslar bilan ta’minlashda depozitlarning aktivlarga nisbatini oshirish taklifi “Mikrokreditbank” ATB amaliyotiga joriy etilgan (“Mikrokreditbank” ATBning 2025-yil 5-martdagi 27/4486-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga tatbiq etilishi natijasida 2023-yilda jismoniy shaxslar bo’yicha o’rtacha tortilgan kredit foiz stavkasi 2022-yilga nisbatan 0,1 foizli punktga pasayib, 21,4 % ni tashkil qilgan;

tijorat banklari tomonidan kreditlar bo’yicha daromadlilik darajasini, ya’ni kreditlar bo’yicha foizli daromadlarning o’rtacha umumiy kreditlar hajmiga nisbatini oshirish maqsadida bank passivlari tarkibida kreditlar bo’yicha majburiyatlar yetarli darajada bo’lishiga erishish hamda u bilan imtiyozli kreditlarning umumiy kreditlardagi ulushining optimal darajasi o’rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash taklifi “Mikrokreditbank” ATB amaliyotiga joriy etilgan (“Mikrokreditbank” ATBning 2025-yil 5-martdagi 27/4486-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy etish natijasida, ushbu yo’nalishda ajratiladigan kreditlar bo’yicha risklar darajasi pasayishiga erishilgan;

kredit riskini kamaytirish maqsadida mijoz va birgalikda qarz oluvchi mavjud kreditlarining kredit grafigi bo’yicha eng yuqori darajadagi to’lov summasini inobatga olish, boshqa kreditlar bo’yicha kafillik holatlarini aniqlash hamda kafillik holatlaridagi ishtirok etuvchilar sonidan kelib chiqib ularda yuzaga kelishi mumkin bo’lgan majburiyatlar ehtimolini baholash orqali kredit yukini hisoblash taklifi “Mikrokreditbank” ATB amaliyotiga joriy etilgan (“Mikrokreditbank” ATBning 2025-yil 5-martdagi 27/4486-son ma’lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi 2024-yil 1-iyul holatiga bankda sof kreditlarning brutto kreditlardagi ulushi bir yil davomida 0,59 foizli punktga o’sishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobsatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 3 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 15 ta ilmiy ish, shu jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan mahalliy ilmiy nashrlarda 7 ta va nufuzli xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqolalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 127 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kredit faoliyati orqali tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida, tijorat banklari kredit faoliyatini takomillashtirishning nazariy asoslari, tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash metodologiyasi va kredit faoliyati orqali tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta‘minlashga ta‘sir etuvchi omillar tahlili batafsil yoritib berilgan.

A.S.Aygali o‘z tadqiqotlarida kredit faoliyatini tartibga solishning prinsiplari to‘g‘risida to‘xtalgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat⁶: 1) sog‘lomlilik tamoyili, ya‘ni banklar kredit riski va boshqa risklardan yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash uchun yetarli kapitalga ega bo‘lishi kerakligi; 2) shaffoflik tamoyili, bunda banklar o‘z faoliyati to‘g‘risida ishonchli va to‘liq ma‘lumotlarni, jumladan, kredit mahsulotlari va kreditlash shartlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni taqdim etishlari shartligi; 3) Iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish tamoyili, bunda bank qarz oluvchilarning huquqlarini, shuningdek, axborot olish huquqini, adolatsiz amaliyotlar va kamsitishlardan himoyalani sh huquqini hurmat qilish kerak bo‘ladi.

L.I.Pronyayeva va N.V.Parushinalar tijorat banklari kredit faoliyatidagi moliyaviy risklarni boshqarish qaratilgan izlanishlarida kredit faoliyatini tartibga solish mexanizmlari sifatida quyidagilarni sanab o‘tgan⁷:

kapitalning yetarlilik standartlari: bank potensial yo‘qotishlarni qoplash uchun ega bo‘lishi kerak bo‘lgan kapitalning minimal darajasiga qo‘yiladigan talablar. Bu kapitalning sifati va miqdoriga talablarni belgilaydigan Bazel III standartlarini o‘z ichiga oladi;

kredit tavakkalchiligini tartibga solish: banklar kredit tavakkalchiliklarini, shu jumladan kredit skoring tartib-qoidalari, qarz oluvchilarni boshqarish va kredit portfeli monitoringi orqali boshqarish kerak;

kuzatish va nazorat: markaziy bank va boshqa tartibga soluvchi organlar banklarning qoidalar va standartlarga rioya etishini ta‘minlash hamda muammolarni erta aniqlash maqsadida ularning faoliyatini muntazam nazorat qilib boradi;


ma‘lumotlarni oshkor qilish qoidalari: banklar o‘z faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni oshkor qilishlari shart.

⁶ Айгалин А.С.А., Амангожаева А.Б. Совершенствование кредитной политики коммерческого банка // Форум. 2023. № 2 (28). С. 84.

⁷ Проняева Л.И., Парушина Н.В. Управление финансовыми рисками в кредитной деятельности коммерческих банков // Вестник Академии знаний. 2023. № 2 (55). С. 363.

Shu boisdan, kredit faoliyatini tartibga solish bank tizimining barqarorligi va ishonchliligini ta'minlashga qaratilgan ko'plab vositalar va mexanizmlarni o'z ichiga oladi.

Bank kredit faoliyatini tartibga solishning shakl va usullarini o'rganishda bank faoliyatini prudensial tartibga solishning mohiyati va xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan tadqiqotlarni qayd etish zarur.



1-rasm. Banklarda kredit faoliyatini tartibga solishdan ko'zlangan maqsadlar⁸

1- rasmda keltirilgan A.G.Bratkoning tadqiqotlariga ko'ra, bank sohasida prudensial tartibga solish bo'yicha me'yoriy-huquqiy faoliyatni amalga oshirishda kredit faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning moliyaviy ishonchliligini va likvidliligini oshirish hamda to'lovga layoqatsizligini kamaytirishga qaratilishi ushbu tartibni samarali ishlashini ta'minlaydi⁹.

M.V.Belyakova o'z tadqiqotlarida banklar faoliyatini prudensial tartibga solish yo'nalishida ko'p to'xtalgan bo'lib, unga ko'ra, banklar faoliyatini tartibga solishning ushbu shakli davlatning markaziy bank orqali amalga oshiradigan bevosita funksiyasi deb ta'kidlaydi¹⁰.

Shu o'rinda tijorat banklarining kredit faoliyatini tartibga solishda har bir iqtisodiyotdagi regulyatorlarni inobatga olmaslik mumkin emas. Bizning iqtisodiyotda bu funksiyani Markaziy bank amalga oshirsa, Rossiya davlatida bu funksiyani Rossiya banki amalga oshiradi. Tadqiqotimizda Rossiya banki tomonidan qo'llaniladigan tijorat banklari kredit faoliyatiga tartibga soluvchi kredit rentabelligi va bankning kredit portfelini boshqarish sifati kabi guruhlariga tegishli bo'lgan koeffitsiyentlar bilan tanishamiz.

⁸ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

⁹ Братко, А. Г. Банковское право России в 2 ч. Часть 1 : учебник для бакалавриата и магистратуры / А. Г. Братко. — Москва : Издательство Юрайт, 2019. — 288 с.

¹⁰ Белякова М.В. Механизм регулирования деятельности банковских институтов // Транспортное дело России. 2009. № 1.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, kredit faoliyatining rentabelligini hisoblashda asosiy ko'rsatkich sifatida sof foizli daromad, ya'ni foizli daromad va foizli xarajatlar orasidagi farq olingan bo'lib, berilgan koeffitsiyentlardan uchtasini hisoblashda bankdagi ushbu ko'rsatkichning tegishli ko'rsatkichlarga nisbati olingan. Faqatgina K4 koeffitsiyentini hisoblash foizli daromadning sof kreditlarga nisbati asosida amalga oshiriladi.

1-jadval

Kredit faoliyatining rentabellik ko'rsatkichlari¹¹

Koeffitsiyent	Mazmuni	Koeffitsiyentni hisoblash	Optimal darajasi, foizda
K1	Kredit portfelining rentabelligini baholaydi	foizli daromad-foizli xarajat)/kredit qo'yilmalar	0,6 – 1,4
K2	Bank kapitalidagi foizli marjaning ulushini ko'rsatadi	(foizli daromad-foizli xarajat) / bank kapitali	10 – 20
K3	Kredit qo'yilmalarning rentabelligini ko'rsatadi	(foizli daromad-foizli xarajat) / sof kredit portfeli	2 – 3,5
K4	Kredit qo'yilmalarning real rentabelligini xarakterlaydi	foizli daromad (qabul qilingani) / sof kredit portfeli	---

Shu o'rinda bir jihatga e'tibor berish kerakki, K1 va K2 koeffitsiyentlar bo'yicha kredit faoliyatining rentabellik ko'rsatkichlari bo'yicha belgilangan optimallik darajasi bo'yicha me'yorlarga asosan quyidagicha xulosa qilish mumkin: ya'ni, bankdagi kredit qo'yilmalarning miqdori bank kapitaliga nisbatan 16,7-14,3 barobar oraliqida bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblandi.

K3 koeffitsiyentidan shuni anglash mumkinki, Rossiya iqtisodiyotida tijorat banklari tomonidan jalb qilingan resurslar uchun to'lanadigan o'rtacha haq darajasi va ushbu resurslarni sotish orqali topilgan daromad darajasi o'rtasidagi ijobiy farq uchun optimal me'yor darajasi 2-3,5 foiz oraliqida bo'lishi maqbul ekan. Bizda odatda ushbu me'yor 4 foiz atrofida bo'lishi bo'yicha amaliyotda kuzatuvlarga egamiz.


K4 koeffitsiyenti esa, tijorat bankining kredit faoliyati natijasida ma'lum bir davrda haqiqatda olingan foizli daromadlarning sof kredit qo'yilmalarga (ya'ni, zaxiralar chegirilgan holdagi) nisbati orqali topilishini inobatga olsak, uni bank kreditlarining ushbu davrdagi deyarli o'rtacha tortilgan foiz stavkasi sifatida qarashimiz mumkin.

Agar K1 va K3 koeffitsiyentlarini hisoblash uslubiyotlariga ko'ra, sur'atda bir xil qiymat, ya'ni sof foizli daromad ekanligini hamda maxrajlarda kredit qo'yimlari va sof kredit portfeli berilganligini inobatga olsak, ushbu koeffitsiyentlar bo'yicha bir-biriga parallel va moslikda muvofiq ta'minlanadigan holatlarda kredit qo'yimlarda sof kredit portfelining ulushi 30-40 foizgacha

¹¹ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

bo'lishi kerak bo'ladi. Bu esa, bankda kreditlash bo'yicha zaxiralar miqdorini kreditlarga nisbatan 60-70 foiz bo'lsagina sodir bo'ladi. Demak, ushbu koeffitsiyentlar bo'yicha o'zaro bog'liqlikda ularning optimal me'yorlar oralig'ini qayta ko'rib chiqish to'g'ri bo'ladi.

Tijorat banklarida kredit faoliyati orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga ta'sir etuvi omillarni ikki guruhga, ya'ni ichki va tashqi omillar guruhiga bo'lib o'rganilgan.



2-rasm. Tijorat banklarida kredit faoliyati orqali ularning moliyaviy barqarorligiga ta'sir qiluvchi ichki omillar¹²

Tadqiqotimizni kredit faoliyati orqali banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashga ta'sir qiluvchi ichki omillarni nazariy tahlili 2- rasm asosida davom ettiramiz.

Bugungi kunda ishlar samaradorligini oshirish, bunda korrupsiya holatlarini oldini olish, mahsulot tannarxini kamaytirish, xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va ularni yetkazishni tezkor hamda qulaylashtirish kabi raqobatbardoshlikning tarkibiy indikatorlariga muvofiq banklarda kredit faoliyatini amalga oshirishda bank faoliyatini yetarli darajada va samarali raqamlashtirish bevosita banklar moliyaviy barqarorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra, banklar tomonidan bu yo'nalishdagi uzoq muddatli strategiyani yaratish va uni samarali ijrosini ta'minlash doimiy raqobatbardosh faoliyat yuritishning kafolati bo'la olishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“Kredit faoliyati orqali tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning amaliy holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida milliy iqtisodiyotda tijorat bank kredit faoliyatini bank moliyaviy barqarorligiga ta'sirini amaliy holati tahlili va “Mikrokreditbank” ATB kredit

¹² Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

faoliyatini bankning moliyaviy barqarorligiga ta'sirini amaliy holati tahlili keltirilgan hamda bob yakunida mazkur masalalar bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Mamlakatimizda bank tizimida mavjud tijorat banklari soni 2020-yil 1-yanvar holatida 30 tani, shu jumladan davlat ulushi mavjud bo'lgan banklar 13 tani hamda boshqa mulkchilik shaklidagi banklar 17 tani tashkil qilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib, 2025-yil 1-yanvar holatida davlat ulushi mavjud banklar 9 tani va boshqa banklar 27 tadan iborat bo'lib umumiy bank tizimida faoliyat yuritayotgan tijorat banklari soni 36 taga yetgan¹³. Bank tizimidagi ushbu dinamik o'zgarish albatta ijobiy hisoblanadi. Chunki, birinchidan davlat ulushi mavjud banklar sonini kamayishi tizimda bozor tamoyillari asosida ishlash darajasi yuqori bo'lgan xususiy sektor ulushi oshishiga sabab bo'lgan xususiylashtirish jarayoni kuzatilganidan dalolat bersa, ikkinchi tomondan yangi ochilgan boshqa mulkchilik shaklidagi banklar hisobiga ham bank tizimidagi tijorat banklari sonining oshishi iqtisodiyotda ushbu sohada xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilanishiga sabab bo'luvchi raqobat muhitini yaxshilanishiga olib keladi.

2-jadval

Milliy iqtisodiyotdagi tijorat banklari faoliyatining asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari, mlrd so'm¹⁴

Ko'rsatkich		01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024	01.01.2025
Tijorat banklari soni	jami	32	33	31	35	36
	davlat ulushli	13	12	12	10	9
	boshqa banklar	19	21	19	25	27
Aktivlar	jami	366 121	444 922	556 746	652 157	769 330
	davlat ulushli	310 730	362 422	435 136	441 777	503 187
	boshqa banklar	55 392	82 501	121 611	210 380	266 143
Kapital	jami	58 351	70 917	79 565	97 079	114 792
	davlat ulushli	48 995	57 695	61 919	63 239	70 175
	boshqa banklar	9 356	13 222	17 646	33 840	44 617
Majburiyat	jami	307 770	374 005	477 181	555 078	654 538
	davlat ulushli	261 734	304 727	373 216	378 538	433 012
	boshqa banklar	46 036	69 278	103 964	176 540	221 526
Depozit	jami	114 747	156 190	216 738	241 687	308 692
	davlat ulushli	82 461	104 248	135 534	124 358	154 511
	boshqa banklar	32 286	51 942	81 203	117 329	154 181
Kredit	jami	276 975	326 386	390 049	471 406	533 121
	davlat ulushli	244 484	280 074	324 681	333 298	366 731
	boshqa banklar	32 491	46 312	65 368	138 107	166 391
Muammoli kreditlar	jami	5 785	16 974	13 992	16 621	21 185
	davlat ulushli	5 168	15 069	12 643	13 267	14 344
	boshqa banklar	617	1 905	1 349	3 354	6 841


Keltirilgan 2-jadval ma'lumotidan ko'rishimiz mumkinki, davlat ulushiga ega bo'lgan tijorat banklarining soni 2025-yil 1-yanvar holatiga kelib 25 foizga tushgan holda 9 tani tashkil qilgan. Shu bilan birga ushbu davrda ular aktivlarining jami

¹³O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayt ma'lumotlari.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

banklar aktivlaridagi ulushi ham 84,9% dan 65,4% gacha pasaygan bo‘lib, bu odatda bozor iqtisodiyoti asosidagi iqtisodiy tizim uchun ijobiy holat va strategik yo‘nalish natijasi sifatida qaraladi. Ammo bank tizimidagi aktivlarning yuqori ulushi ushbu 9 ta bankda saqlanib qolayotgani butun bank tizimida davlatning tartibga solish funksiyasidan ko‘ra, boshqa vositalar orqali aralashuvini yuqori bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, bank tizimida tijorat banklari kapitalining aktivlariga nisbati tahlil davrining oxiriga kelib 14,9% ni tashkil qilgan holda 2021-yilgi 15,9% ga nisbatan 1 foizli punktga pasaygan. Bu esa banklarda kapital bilan ta‘minlanganlik nuqtai nazaridan salbiy holat hisoblansa, ikkinchi tomondan sof foyda aktivlarga nisbatan o‘zgarmas darajasi saqlansa kapital rentabelligini yuqori bo‘lishi nuqtai nazaridan ijobiydir. Ammo, tahlil yanada chuqurroq o‘rganilganda, kapitalning aktivlarga nisbati boshqa mulkchilik shaklidagi banklarda tahlil davri boshida va oxirida mos ravishda 16,9% va 16,8% bo‘lgan bo‘lsa, davlat ulushi mavjud banklarda esa 15,8% dan 13,9% ga pasaygan. Ya‘ni umumiy holatdagi 1 foizli punkt pasayishga davlat ulushidagi banklarda kapital ulushining pasayishi yuqori darajada ta‘sir ko‘rsatgan.




3-rasm. Banklarning 2020-2024-yillardagi kreditlar bo‘yicha ulushi¹⁵

Banklar ushbu 3-rasm va yuqorida keltirilgan jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, tahlil davri davomida tijorat banklarining kreditlari hajmi 1,93 barobarga, jumladan davlat ulushi mavjud banklarda 1,50 barobarga va boshqa mulkchilik shaklidagi banklarda 5,12 barobarga ko‘paygan. Demak ushbu tahlillarga ko‘ra, davlat ulushi mavjud bo‘lmagan banklar guruhiga kiruvchi tijorat banklaridagi kreditlar hajmining sezilarli farq bilan o‘shish darajasi, uning umumiy bank tizimidagi kredit portfelidagi ulushining oshishiga ham xizmat qilgan. Natijada, rasm ma‘lumotlarida keltirilgani kabi, davlat ulushi mavjud bo‘lmagan banklar kreditlarining ulushi 11,7% dan 31,2% gacha oshgan, aksincha davlat ulushi mavjud bo‘lgan banklar

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayt ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

kreditlarining ulushi mos ravishda tahlil davrida 19,5 foizli punktga pasaygan. Bunga sabab sifatida quyidagilarni keltirish mumkin: 2023-yil 2-yarim yillikda davlat ulushi mavjud bo‘lgan yirik banklardan biri bo‘lgan Ipoteka bankining xususiylashtirilishi natijasida undagi kreditlar miqdori davlat ulushi mavjud bo‘lmagan banklar kreditlari tarkibiga kirishi hisobiga ro‘y bergan. Ushbu bank 2023-yil 1-yanvar holatiga davlat banklaridan biri sifatida bank tizimidagi kreditlarning 8,4% ulushiga egalik qilgan bo‘lsa, 2024-yil 1-yanvar holatida boshqa mulkchilik shaklidagi banklar safiga qo‘shilgan holda 7,9% ulushga ega bo‘lgan. Demak, ushbu davrdagi davlat ulushi mavjud bo‘lmagan banklar kreditlarining umumiy kreditlardagi ulushini 12,5% ga ko‘payishiga mazkur xususiylashtirish jarayonining 8% atrofida hissasi mavjud bo‘lib, ulushning qolgan o‘rish qismi tahlil davrining boshqa yillarida bo‘lgani kabi ushbu guruh banklarida aktivlarning va kreditlarning o‘rish darajasi davlat ulushi mavjud bo‘lganlariga ko‘ra yuqori holatda bo‘lganligi sabab ro‘y bergan.



4-rasm. 2021-2025-yillar 1-yanvar holatida banklarda kreditlarning depozitlarga nisbati¹⁶


Yuqorida keltirilgan rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2021-2025-yillar oralig'ida barcha tijorat banklaridagi kreditlarning depozitlarga nisbati pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, bu dinamika xalqaro tajribaga ko'ra ijobiy jarayon hisoblanadi. Ammo 2025-yil 1-yanvar holatidagi ko'rsatkich darajasi ham bu nisbat ko'rsatkichi uchun tavsiya qilingan 80-90 foizlik optimal darajadan qariyb ikki barobar ko'p hisoblanadi. Lekin, ushbu holatda har bir milliy iqtisodiyot uchun kreditlarning depozitlarga nisbati borasida optimal hisoblanadigan alohida darajalar bo'lishi mumkinligini inobatga olish kerak bo'ladi. Chunki, rivojlangan

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayt ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

iqtisodiyotdan ko‘ra rivojlanayotgan iqtisodiyotda aholining, shu jumladan iqtisodiy subyektlarning jamg‘arish imkoniyati past bo‘ladi va bu holat cheklangan bo‘lishi (tartibga solinishi) mumkin, ya‘ni joriy daromadlarining hisobot davridagi xarajatlardan ortishi orqali investitsiya qilish imkoniyatiga ega bo‘ladigan zaxiraga aylanishi va bu banklarda depozitlar shaklida joylashtirishi past darajada bo‘ladi. Bu holatda esa, ushbu depozitlar narxi mos ravishda milliy iqtisodiyot bozoridagi talab va taklif asosida shakllangan ustama haqning manfaatli darajasida bo‘lishini talab etadi va bu odatda rivojlangan iqtisodiyotdagidan ko‘ra yuqori bo‘ladi. Shu sababli, rivojlanayotgan iqtisodiyotdagi banklar o‘z faoliyatlarini, xususan kredit faoliyatlarini amalga oshirish uchun mablag‘lar jalb qilishda ichki bozordagi resurs shakllaridan, jumladan depozitlardan ko‘ra, xorijiy kreditlar yoki qimmatli qog‘ozlar emissiyasi orqali chetdan arzon va barqaror mablag‘lar jalb qilishga intiladi. Natijada ular balansining passivida depozitlarning ulushi past hamda kreditlarning depozitlarga nisbati yuqoriroq bo‘ladi. Ammo tahlil davrida, davlat ulushi mavjud bo‘lgan banklarda kreditlarning depozitlarga nisbati bank tizimidagi o‘rtacha darajadan 60 foizli punkt atrofida yuqori bo‘lgan. Ammo, boshqa mulkchilik shaklidagi banklarda bu ko‘rsatkich ancha yaxshi bo‘lib, xalqaro tavsiyalardagi me‘yorga yaqinroq. Faqatgina 2024-yil ma‘lumotlarida keskinroq ko‘tarilgan bo‘lib, bu ham Ipoteka bankning xususiylashishi natijasi bilan bog‘liq, 2025-yilga kelib nisbat ijobiy tomonga qarab barqarorlashgan. Umuman olganda, milliy iqtisodiyotimizda o‘z faoliyatlarini resurslar bilan ta‘minlashda mavjud iqtisodiy holatdagi talab va taklif asosidagi baholar orqali o‘z ehtiyojlariga (kreditlash hajmiga) nisbatan ichki resurslarni depozit shaklida jalb qilishda davlat ulushi mavjud bo‘lgan banklardan ko‘ra boshqa mulkchilik shaklidagi banklarda faollik va uning nisbiy miqdordagi natijasi tahlil davrida o‘rtacha 2,7 barobarga ijobiy bo‘lgan. 2022-2023-yillar 1-yanvar holatidagi ma‘lumotlardan shuni anglash mumkinki, boshqa mulkchilik shaklidagi banklarda jalb qilingan depozitlarning mos ravishda 89,2% va 80,5% kreditlar hajmiga to‘g‘ri kelgan holda ushbu banklarda boshqa faoliyatlarini moliyalashtirishda ham depozitlarning qolgan qismidan foydalanish imkoniyati yaratilgan. Bu albatta, iqtisodiyotda sog‘lom raqobatdagi foiz stavkasini shakllanishiga o‘z ta‘sirini o‘tkazishi mumkin bo‘lgan jarayonli omillardan biri hisoblanadi.

Keltirilgan 5-rasmda O‘zbekiston bank tizimidagi tijorat banklarining 2021-2025-yillar 1-yanvar holatidagi umumiy kredit portfelidagi mavjud muammoli kreditlar hajmi va ushbu muammoli kreditlarning davlat ulushi mavjud bo‘lgan banklar guruhiga hamda boshqa mulkchilik shaklidagi banklar guruhiga tegishliligi bo‘yicha ulushlari dinamikasi aks ettirilgan. Unga ko‘ra, 2021-yil davomida muammoli kreditlar 2,93 barobarga sezilarli darajada o‘sgan, bu holat 2020-yilda kuzatilgan pandemiya ta‘sirida bank mijozlari tomonidan olingan kreditlar bo‘yicha to‘lovlarning kechikishi va/yoki ularda to‘lov qobiliyatining pasayishi yoki yo‘qolishi kabi holatlarning vujudga kelishi bilan uzviy bog‘liqdir. Va ko‘rilgan choralar sabab bu o‘sish natijasidagi qiymat 2022-yil davomida qariyb 18% ga qisqargan va 2023-yil 1-yanvar holatida muammoli kreditlarning miqdori 14 trln

soʻm atrofida boʻlgan. 2023 va 2024-yillarda esa muammoli kreditlar hajmi oʻsish darajasi mos ravishda 118,8% va 127,5% ni tashkil qilgan.



5-rasm. 2021-2025-yillar davomida tijorat banklaridagi muammoli kreditlar hajmi va ularda banklar guruhlar ulushi dinamikasi¹⁷


Shuningdek, rasm maʼlumotlaridan koʻrishimiz mumkinki, muammoli kreditlarning tegishliligi boʻyicha garchi davlat ulushi mavjud boʻlgan banklarning hissasi yuqoriligicha saqlanib qolayotgan boʻlsada, boshqa banklarning ulushi tahlil davri davomida 3,02 barobarga oshgan. Xususan, 2023-yilda ushbu ulush 10,6 foizli punktga yoki 2,1 barobarga koʻpaygan boʻlsa, 2024-yilda 12,1 foizli punktga yoki 1,6 barobarga koʻpaygan. Ushbu holatlarga quyidagilarni sabab sifatida sanashimiz mumkin: 1) Ipoteka-bank xususiylashishi natijasida bank faoliyatidagi muammoli kreditlar hajmi va unga mos ravishda ulushi 2023-yil yakunidagi natijaga taʼsirini oʻtkazgan boʻlsa; 2) tahlil davri davomida davlat ulushi mavjud boʻlmagan banklar kredit portfeli qariyb 5,12 barobarga oshgan holda, uning jami kredit portfelidagi ulushi 19,5 foizli punktga oshib, 11,7% dan 31,2% gacha koʻtarilgan holda 2,67 barobar oʻsgan va bu mos ravishda ushbu kreditlar tarkibidagi muammoli kreditlar orqali ushbu guruhning bu boradagi hissasiga ham taʼsirini koʻrsatgan.

Umuman olganda, yuqorida keltirilgan rasm maʼlumotlari boʻyicha tahlillarga doir absolyut xulosalarni shakllantirishimiz uchun navbatda muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi dinamikasi tahlilini amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

6-rasmda keltirilgan maʼlumotlardan koʻrinadiki, doimiy ravishda boshqa mulkchilik shaklidagi banklarda muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi bank tizimidagi koʻrsatkichdan ham, shuningdek davlat ulushi mavjud boʻlgan banklar koʻrsatkichidan ham past boʻlgan boʻlib, faqatgina tahlil davrining oxirida ushbu tendensiya teskari nisbatda boʻlgan. Yaʼni 2025-yil 1-yanvar holatida boshqa mulkchilik shaklidagi banklardagi muammoli kreditlarning oʻsish darajasi (204,0%)

¹⁷ Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayt maʼlumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

ulardagi kreditlarining o‘shish darajasi (120,5%)dan yuqori bo‘lishi hisobiga, ushbu davrda muammoli kreditlarning ulushi keskin oshishiga olib kelgan.



6-rasm. 2021-2025-yillar davomida tijorat banklaridagi muammoli kreditlar hajmi va ularda banklar guruhlar ulushi dinamikasi¹⁸

Ammo davlat ulushi mavjud bo‘lgan banklarda muammoli kreditlarning ulushi yuqori darajada saqlanib qolgan. Shu boisdan, mazkur banklarda kreditlash faoliyatini tartibga solish choralari ko‘rish, xususan, kreditlash mexanizmlari, qolaversa shakllantirilayotgan resurslar bo‘yicha risklar banklar zimmasiga qolayotganligi sabab ushbu resurslardan foydalanish tartiblarini bozor tamoyillari asosida mustaqil belgilash imkoniyatlariga ega bo‘lish orqali kredit siyosati va kredit strategiyasini ishlab chiqish hamda takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mamlakatimizda 2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra faoliyat yuritayotgan barcha tijorat banklari orasida aktivlari hajmi va kreditlar miqdoriga ko‘ra 10-o‘rinda, davlat ulushi mavjud bo‘lgan banklar orasida ushbu ko‘rsatkichlar bo‘yicha 7-o‘rinda bo‘lgan “Mikrokreditbank” ATBning ushbu sanadagi muammoli kreditlari hajmi 804,4 mlrd so‘mni tashkil qilgan. Bu miqdor ushbu bank kredit portfelining 4,6 foizini, barcha tijorat banklaridagi muammoli kreditlarning 3,7 foizini, davlat ulushi mavjud bo‘lgan banklardagi ushbu toifadagi kreditlarning 5,6 foizini tashkil qilgan.

Ushbu sanada NPLga doir reyting bo‘yicha: birinchidan, “Mikrokreditbank” ATB muammoli kreditlar hajmiga ko‘ra tijorat banklari orasida 9-o‘rinni, davlat ulushi mavjud banklar orasida 7-o‘rinni; ikkinchidan, kredit portfelidagi muammoli kreditlarning ulushi bo‘yicha barcha banklar orasida 9-o‘rinni, davlat ulushi mavjud banklar orasida 3-o‘rinni egallagan. Bir jihatga e‘tibor berish kerakki, ushbu tuzilgan reytingda bank o‘rni qanchalik yuqori bo‘lsa bu shunchalik salbiy holat hisoblanadi. Shunga ko‘ra, davlat ulushi mavjud banklar orasida mazkur bank aktivlari, kreditlari va muammoli kreditlari hajmi bo‘yicha 7-o‘rinda bo‘lgan holda muammoli kreditlarning kredit portfelidagi ulushi bo‘yicha 3-o‘rinda bo‘lishi (1-o‘rin: Biznesni

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

rivojlantirish banki-8,5%; 2-o‘rin: Agrobank-4,9%) bank kredit faoliyati natijadorligi va uning bank moliyaviy barqarorligiga ta’siri yuzasidan ijobiy holat hisoblanmaydi.

3-jadval

“Mikrokreditbank” ATBda kreditlar va resurslar manbalari bo‘yicha ko‘rsatkichlar tahlili ¹⁹

Ko‘rsatkichlar	Izoh	2020	2021	2022	2023	2024
<i>Kreditlar bo‘yicha foizli daromadlar</i>	<i>A</i>	<i>A₂₀₂₀</i>	<i>A₂₀₂₁</i>	<i>A₂₀₂₂</i>	<i>A₂₀₂₃</i>	<i>A₂₀₂₄</i>
<i>Umumiy kreditlar o‘rtachasi</i>	<i>B</i>	<i>B₂₀₂₀</i>	<i>B₂₀₂₁</i>	<i>B₂₀₂₂</i>	<i>B₂₀₂₃</i>	<i>B₂₀₂₄</i>
<i>Kreditlarning daromadlilik darajasi, foizda</i>	<i>A_n/B_n*100</i>	14,58	14,32	14,53	15,40	16,97
<i>Kreditlar bo‘yicha foizli xarajatlar</i>	<i>C</i>	<i>C₂₀₂₀</i>	<i>C₂₀₂₁</i>	<i>C₂₀₂₂</i>	<i>C₂₀₂₃</i>	<i>C₂₀₂₄</i>
<i>Kreditlar bo‘yicha majburiyatlar o‘rtachasi</i>	<i>D</i>	<i>D₂₀₂₀</i>	<i>D₂₀₂₁</i>	<i>D₂₀₂₂</i>	<i>D₂₀₂₃</i>	<i>D₂₀₂₄</i>
<i>Kreditlar bo‘yicha xarajatlar darajasi, %</i>	<i>C_n/D_n*100</i>	7,15	7,84	7,35	9,04	9,70
<i>Muddatli depozitlar bo‘yicha foizli xarajatlar</i>	<i>K</i>	<i>K₂₀₂₀</i>	<i>K₂₀₂₁</i>	<i>K₂₀₂₂</i>	<i>K₂₀₂₃</i>	<i>K₂₀₂₄</i>
<i>Muddatli depozitlarning o‘rtachasi</i>	<i>L</i>	<i>L₂₀₂₀</i>	<i>L₂₀₂₁</i>	<i>L₂₀₂₂</i>	<i>L₂₀₂₃</i>	<i>L₂₀₂₄</i>
<i>Muddatli depozitlar bo‘yicha xarajatlar darajasi, %</i>	<i>K_n/L_n*100</i>	13,89	14,94	13,12	15,89	17,80
<i>Talab qilib olinguncha depozitlar bo‘yicha foizli xarajatlar</i>	<i>M</i>	<i>M₂₀₂₀</i>	<i>M₂₀₂₁</i>	<i>M₂₀₂₂</i>	<i>M₂₀₂₃</i>	<i>M₂₀₂₄</i>
<i>Talab qilib olinguncha depozitlarning o‘rtachasi</i>	<i>N</i>	<i>N₂₀₂₀</i>	<i>N₂₀₂₁</i>	<i>N₂₀₂₂</i>	<i>N₂₀₂₃</i>	<i>N₂₀₂₄</i>
<i>Talab qilib olinguncha depozitlar bo‘yicha xarajatlar darajasi, %</i>	<i>M_n/N_n*100</i>	1,14	1,62	3,73	3,92	5,74
<i>Kreditlar, muddatli va talab qilib olinguncha depozitlar bo‘yicha jami foizli xarajatlar</i>	<i>F=C+K+M</i>	<i>F₂₀₂₀</i>	<i>F₂₀₂₁</i>	<i>F₂₀₂₂</i>	<i>F₂₀₂₃</i>	<i>F₂₀₂₄</i>
<i>Kreditlar, muddatli va talab qilib olinguncha depozitlar bo‘yicha majburiyatlar yig‘indisi o‘rtachasi</i>	<i>G=D+L+N</i>	<i>G₂₀₂₀</i>	<i>G₂₀₂₁</i>	<i>G₂₀₂₂</i>	<i>G₂₀₂₃</i>	<i>G₂₀₂₄</i>
<i>Uch tur majburiyatlar bo‘yicha xarajatlar darajasi, %</i>	<i>F_n/G_n*100</i>	8,46	9,30	9,17	11,58	12,70
<i>Manfaatdorlik darajasi</i>	<i>Tafovutda (A_n/B_n – F_n/G_n) *100</i>	6,12	5,02	5,36	3,82	4,27
	<i>Nisbatda (A_n/B_n : F_n/G_n) *100</i>	172,3	153,9	158,4	133,0	133,6
<i>Umumiy kreditlar (Y)</i>	<i>Y</i>	<i>Y₂₀₂₀</i>	<i>Y₂₀₂₁</i>	<i>Y₂₀₂₂</i>	<i>Y₂₀₂₃</i>	<i>Y₂₀₂₄</i>
<i>Muddatli depozitlar (X), Y ga nisbati, %</i>	<i>x_n/Y_n*100</i>	20,6	22,8	33,5	38,0	37,6
<i>Talab qilib olinguncha depozitlar (Z)ni Y ga nisbati, %</i>	<i>z_n/Y_n*100</i>	7,3	6,4	7,2	6,1	7,4
<i>Kreditlar bo‘yicha majburiyatlar (W)ni Y ga nisbati, %</i>	<i>w_n/Y_n*100</i>	50,4	47,0	37,3	44,0	52,2
<i>Majburiyatlar (X+Z+W)ni Y ga nisbati, %</i>	<i>(X_n+Z_n+W_n)/Y_n*100</i>	78,3	76,2	77,9	88,0	97,1

¹⁹ Tadqiqotlar va “Mikrokreditbank” ATBning 2020-2024-yil hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Bankning kredit faoliyati nuqtai nazaridan balansning passivi tarkibidagi bu o'zgarishlar, ya'ni kredit shaklidagi majburiyatlar va banklar oldidagi qarzlarning kamayishi, aksincha esa depozitlar va subordinar qarzlarning o'sishi ijobiy yoki salbiy tendensiya ekanligi, aniqroq aytadigan bo'lsak bank manfaati (ya'ni ma'lum haq evaziga resurs sotib olib, uni sotish orqali yetarli darajada naf olish) uchun maqbul jarayon yoki samarasiz dinamik o'zgarish ekanligi borasida fikr bildirishimiz uchun, biz ushbu majburiyatlar uchun to'lanadigan haq darajasi va ular orqali topiladi manfaat darajalarini tahlil qilishimiz kerak bo'ladi.

3-jadval ma'lumotlarida "Mikrokreditbank" ATB tomonidan berilgan kreditlar orqali topilgan foizli daromadlarni kreditlarning o'rtacha qiymatiga bo'lish orqali kreditlarning daromadlilik darajasi hamda bank majburiyatlari, jumladan kreditlar, talab qilib olinguncha va muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlarni mazkur majburiyatlarning o'rtacha summasiga bo'lish orqali ushbu majburiyatlarning har biri bo'yicha hamda ular bo'yicha umumiy xarajatlar (majburiyatlarning xarajatlilik) darajasi hisoblab chiqilgan va ko'rsatkichlar keltirilgan.

4-jadval


"Mikrokreditbank" ATBning umumiy kreditlari va uning sifati bo'yicha tarkibi dinamikasi²⁰

Ko'rsatkichlar		Umumiy kreditlar	Shu jumladan,					Muammoli kreditlar
			Standart	Substandart	Qoniqsiz	Shubhali	Umidsiz	
31.12.2020	<i>mlrd so'm</i>	8539,8	6912,2	1540,9	34,5	35,9	16,2	86,6
	<i>ulushi</i>	100%	80,9%	18,0%	0,40%	0,42%	0,19%	1,01%
31.12.2021	<i>mlrd so'm</i>	10815,9	9186,5	987,1	238,1	79,8	324,4	642,3
	<i>ulushi</i>	100%	84,9%	9,13%	2,20%	0,74%	3,00%	5,94%
31.12.2022	<i>mlrd so'm</i>	13318,6	10110,2	2572,9	110,8	331,5	193,1	635,5
	<i>ulushi</i>	100%	75,9%	19,3%	0,83%	2,49%	1,45%	4,77%
31.12.2023	<i>mlrd so'm</i>	14437,1	10039,1	3532,8	102,4	237,6	525,2	865,2
	<i>ulushi</i>	100%	69,5%	24,5%	0,71%	1,65%	3,64%	5,99%
31.12.2024	<i>mlrd so'm</i>	17416,4	12909,8	3702,2	144,8	167,5	492,1	804,4
	<i>ulushi</i>	100%	74,1%	21,3%	0,83%	0,96%	2,83%	4,62%
Umumiy kreditlardagi o'rtacha ulushi, %			77,1%	18,4%	1,00%	1,25%	2,22%	4,47%

Navbatda keltirilgan 4-jadvalda "Mikrokreditbank" ATBning 2020-2024-yillar davomida bank tomonidan ajratilgan kreditlarning sifati bo'yicha besh toifadagi tasnifga ko'ra tarkibiy tuzilishining o'zgarish dinamikasi keltirilgan. Bank aktivlari, xususan kreditlarning belgilangan tartibga ko'ra eng ijobiy toifasi hisoblangan standart kreditlarlar miqdori tahlil davri davomida 6,9 trln so'mdan 12,9 trln so'mgacha ko'paygan, ammo uning ulushi ushbu davrda 80,9 foizdan 74,1 foizga tushgan bo'lib, bu bankning moliyaviy barqarorligi uchun ijobiy holat hisoblanmaydi. Chunki mazkur tasnifdagi kreditlar ulushining kamayishi boshqa

²⁰ "Mikrokreditbank" ATBning 2020-2024-yil hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

tasnifdagi (nisbatan sifati yomon) kreditlarning ulushi ko‘payishiga olib keladi. Bu holat esa, o‘z navbatida belgilangan tartibga ko‘ra ular bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlar miqdori va ehtimolini oshishini anglatadi, natijada esa bank tomonidan yaratilishi zarur bo‘lgan zaxiralar uchun xarajatlarni ko‘payishiga va foydaning kamayishiga sabab bo‘ladi. Bankda substandart tasnifdagi kreditlar ulushi 2024-yilda 2020-yilga nisbatan 3,3 foizli punktga oshib 21,3% ni tashkil qilgan. Ushbu toifadagi kreditlar uchun bugungi kunda yaratilishi mumkin bo‘lgan zaxiralash me‘yori 10% bo‘lib, bu me‘yor standart kreditlarnikiga qaraganda 10-marta ko‘p hisoblanadi. Ya’ni, standart toifadagi kreditlardan substandart tasnifdagi kreditlarga o‘tgan kredit birligi uchun bank tomonidan xarajatlar 10 barobarga ko‘payadi. Substandart kreditlar bilan bog‘liq quyidagi jihatlar borki bank tomonidan ularga doim e‘tibor berilishi lozim, jumladan: 1) kreditlarning standart tasnifidan substandart tasnifiga o‘tish ehtimoli yuqori; 2) substandart kreditlar bo‘yicha yaratilgan zaxiralar bank uchun hisobot davridagi xarajat (va zaxira) sifatida qaraladi, ammo u muammoli kreditlar tarkibiga kirmaganligi sabab bankda kreditlar bo‘yicha yaratilgan zaxiraning muammoli kreditlarga nisbatini nobarqaror bo‘lishiga sabab bo‘ladi; 3) mazkur tasnifdagi kreditlar ulushining keskin oshishi bankda brutto va netto aktivlar tafovutining kattalashuviga olib keladi (garchi ushbu davrda muammoli kreditlar kam yoki umuman bo‘lmasada).



7-rasm. “Mikrokreditbank” ATBdagi muammoli kreditlar va kreditlar bo‘yicha yaratilgan zaxiraning o‘zaro nisbati holati dinamikasi²¹


7-rasm ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, bankda yaratilgan kreditlar bo‘yicha zaxira miqdorining muammoli kreditlarga nisbati tahlil davri davomida nobarqaror tendensiyada bo‘lgan. Ya’ni, hech bir ikki yillik davrda barqaror o‘sish yoki pasayish dinamikasini qayd etmagan. Kreditlar bo‘yicha yaratilgan zaxira mantiqan banklardagi muammoli kreditlarning tarkibiy tuzilishiga muvofiq yetarli darajada shakllanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Agar shunga erilsa, uning maksimal chegarasi 1 koeffitsiyent (100%)ni tashkil qiladi va bunda muammoli kreditlar to‘liq umidsiz kreditlardan tashkil topgan bo‘lishi zarur. Boshqa holatlarda, xususan, muammoli kreditlar tarkibida qoniqarsiz va shubhali kreditlar mavjud bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 1 dan yoki 100% dan past bo‘ladi, chunki ular bo‘yicha belgilangan

²¹“Mikrokreditbank” ATBning 2020-2024-yil hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

yaratilishi lozim bo'lgan zaxiralash me'yori mos ravishda 25% va 50% ni tashkil qiladi. Biroq rasmda ko'rish mumkinki, 2021-yil 1-yanvar holatida zaxiralarning muammoli kreditlarga nisbati 227,9% bo'lgan, bunga sabab esa, bankda substandart kreditlar ulushi oshishi hisobiga ular bo'yicha yaratilgan zaxiralar hajmining ko'payishi bo'lgan bo'lishi mumkin.

Tahlil davrining keyingi yillarida esa zaxiralarning NPLga nisbati juda past darajada bo'lgan, garchi NPL tarkibida umidsiz kreditlar ulushi yuqori darajada bo'lgan bo'lsada. Demak, bankda belgilangan talablar bo'yicha zaxiralash normasini bajarilish holati yetarli darajada bo'lmagan bo'lishi mumkin.

Xalqaro tajribaga ko'ra, banklar faoliyat samaradorligini o'lchovchi, shuningdek banklarning moliyaviy barqarorligi baholashga xizmat qiluvchi yana bir muhim ko'rsatkich bu bankning samaradorlik koeffitsiyenti bo'lib, u hisobot yilidagi bankning foizsiz va operatsion xarajatlari yig'indisini bankning foizsiz va foizli daromadlari yig'indisidan tashkil topgan jami daromadlariga nisbati orqali aniqlanadi.




8-rasm. “Mikrokreditbank” ATBning 2020-2024-yillardagi samaradorlik koeffitsiyenti ko'rsatkichi dinamikasi ²²

Yuqoridagi 8-rasmdan ko'rish mumkinki, bankda foizsiz va operatsion xarajatlarning jami daromadlarga nisbati 2021-yildan boshlab keskin o'sib borgan. Ushbu ko'rsatkich mazmuniga ko'ra ushbu samaradorlik koeffitsiyentining yuqorilab borish bankda topilgan daromadning sof foydaga aylanish ehtimolini pasayishiga va moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari hisoblangan rentabellik darajalarini tushishiga olib keladi. Ya'ni ushbu koeffitsiyentning o'zgarishi bank manfaatlariga teskari proporsionallikda bo'ladi. Ushbu koeffitsiyentning mazkur bankda shu kabi salbiy tendensiyaga erishishiga: bir tomondan, yillar davomida samarasiz foizsiz va operatsion xarajatlarning ortishi; ikkinchi tomondan esa mazkur xarajatlarning o'sish darajasi bankning jami daromadlarining o'sish darajasidan yuqori darajaga chiqqanligi sabab yuzaga kelgan. Bu esa, bankda mazkur samaradorlik koeffitsiyenti orqali faoliyat samaradorligini doimiy baholash orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalalariga yuqori mas'uliyat bilan

²² “Mikrokreditbank” ATBning 2020-2024-yil hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

yondashuvni talab etadi.




9-rasm. “Mikrokreditbank” ATBning 2020-2024-yillarda rentabellik ko‘rsatkichlari²³

Tahlilimizda, 9-rasm ma’lumotlarida “Mikrokreditbank” ATBning besh yillik faoliyatining yakuniy moliyaviy natijalari asosida hisoblanadigan bankning moliyaviy barqarorligini ifodalaydigan, shuningdek investorlar tomonidan kapital kiritish maqsadida qarorlar qabul qilishda o‘rganiladigan samaradorlik darajalarini ko‘rsatadigan bank aktivlari va kapitali rentabelligi ko‘rsatkichlari keltirilgan. Xalqaro tajribaga ko‘ra, ROA ko‘rsatkichi 1% va ROE ko‘rsatkichi esa 10% bo‘lishligi tavsiya etiladi. Ammo ma’lumotlardan ko‘rinadiki, bankning tahlil davridagi besh yillik faoliyati davomida aktivlar rentabelligi ko‘rsatkichi faqatgina 2020-yilda tavsiyaviy darajadan yuqori bo‘lgan va bu ijobiy holat hisoblanadi, lekin ushbu yilda kapital rentabelligi ko‘rsatkichi 5,95% ni tashkil qilgan, bu esa bank tomonidan erishilgan sof foyda miqdori o‘z mablag‘lariga nisbatan ushbu darajada bo‘lganligini tavsiflaydi va bu tavsiyaviy 10% lik darajadan past bo‘lgan. Keyingi uch yil davomida esa ushbu ko‘rsatkichlar bo‘yicha holat: avvalgi tahlillarimizga ko‘ra, bankda belgilangan me’yor talablari asosida zaxiralash miqdori bajarilmagan bo‘lsada (agar bajarilganda sof foyda qayd etilganidan ko‘ra kam bo‘lardi), shakllantirilgan sof foydaning bank kapitali va aktivlariga nisbati milliy iqtisodiyotimiz holatidan kelib chiqib erishish kerak bo‘lgan target darajadan (qayta moliyalashtirish stavkasi +1%) va xalqaro ekspertlar tavsiyasidan ko‘ra 5-10 barobargacha anchayin darajada past natijalarni qayd etgan. Bu holat bankning faoliyat natijadorligi musbat (shakllantirilgan sof foyda kabi ko‘rsatkichlar asosida) bo‘lsada, jozibasiz ekanligini anglatadi. 2024-yil yakunlari bo‘yicha bankda yuzaga kelgan zarar miqdori bank rentabellik ko‘rsatkichlarini manfiy holatda bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Dissertatsiyaning **“Tijorat banklari kredit faoliyatini takomillashtirish orqali ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlashni yo‘llari”** deb nomlangan uchinchi bobida tijorat banklari kredit faoliyatini ularning moliyaviy barqarorligiga

²³ “Mikrokreditbank” ATBning 2020-2024-yil hisobotlariga ko‘ra tahlillar asosida muallif tomonidan tuzildi.

ta'siri tahlilining xorijiy davlatlar tajribasi va kredit faoliyati orqali tijorat banklari moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi muammolar aniqlangan hamda ularning yechimlari ishlab chiqilgan.




10-rasmda Xitoyning ICBC banki va Rossiya Sberbanklarining aktivlari tarkibidagi kreditlarning ulushini 2020-2024-yillardagi 31-dekabr holati boʻyicha dinamikasi keltirilgan. Koʻrib turganimizdek, Sberbankda aktivlar tarkibida kreditlarning ulushi tahlil davri davomida 65-72 foiz oraligʻida boʻlgan boʻlsa, ICBC bankda esa bu koʻrsatkich 54-57 foiz atrofida boʻlgan holda, ushbu davrda mazkur koʻrsatkich boʻyicha ikki bankdagi oʻzaro farq 11-15 foiz oraligʻini tashkil qilgan. Demak, Sberbank aktivlarini katta qismini foizli daromadlar manbai hisoblangan kreditlarga yoʻnaltirgan. Bu esa bankda sof foizli daromadlarning koʻpayishiga olib kelishi mumkin.

Navbatda keltirilgan 11-rasmda, banklar tomonidan asosiy manbasi kredit faoliyati hisoblangan foizli daromadlardan foizli xarajatlarni, shuningdek kreditlar boʻyicha zaxiralash xarajatlarni chegirgan holda shakllanadigan sof foizli daromadlarning bankning operatsion daromadlardagi ulushi keltirilgan boʻlib, unga koʻra ushbu koʻrsatkich tahlil davri davomida har ikki bankda ham 70 foizdan kam boʻlmagan. Va bu esa, banklar tomonidan aktivlarning kreditlarga yoʻnaltirilishi maqsad va manfaat nuqtai nazaridan toʻgʻri proporsionallikda muvofiqlikka erishgan deyish mumkin. Yana bir holatni qoʻshimcha qilish kerakki, ushbu koʻrsatkich boʻyicha banklardagi holatni aniqlashda, ikki xil metodika amaliyotda mavjud boʻlganligi, yaʼni Sberbankda sof foizli daromad va operatsion daromad shakllangungacha kreditlar boʻyicha zaxiralash xarajatlari chegirilsa, ICBC bankida esa operatsion daromadlar shakllangandan soʻng operatsion foydani aniqlashda kreditlar boʻyicha zaxiralash xarajatlari chegiriladi. Shu sababli koʻrsatkichni aniqlash metodikasini bir xillashtirish maqsadida ICBC banki hisobotida keltirilgan sof foizli daromad va operatsion daromadlardan kreditlar boʻyicha zaxiralash xarajatlarini ayirgan holda hisoblab chiqarilgan qiymatlaridan foydalanildi.

²⁴ Xitoyning ICBC banki va Rossiya Sberbanklarining 2020-2024-yillardagi hisobotlari asosida tayyorlandi.

²⁵ Xitoyning ICBC banki va Rossiya Sberbanklarining 2020-2024-yillardagi hisobotlari asosida tayyorlandi.



Keltirilgan 12-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tahlil qilinayotgan xorijiy banklardan Xitoyning ICBC bankida har yilgi kreditlar bo'yicha yo'qotishlarni baholash orqali qilinadigan zaxiralash xarajatlari barqaror darajada bo'lib, uning 20 foizdan deyarli kam bo'lmaganini yaxshi holat deb baholab bo'lmaydi. Shuningdek mazkur ko'rsatkich tahlil davrida o'rtacha 22,6 foizni tashkil qilgan va yillar davomida nisbatan barqaror darajada pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2024-yildagi 19,7% tahlil davrining eng past darajasi bo'lib, bu ko'rsatkich bo'yicha bank moliyaviy barqarorligi uchun tahlil davrining eng ijobiy holati hisoblanadi. Chunki, belgilangan talab bajarilgan holda, kreditlar bo'yicha yo'qotishlarni baholash orqali qilinadigan zaxiralash xarajatlarni ularni chegirishdan avvalgi sof foizli daromadlardagi ulushining pasayishi bankda kreditlar sifatining yaxshilanganligini hamda kredit faoliyati orqali topilgan daromadlarning sof foydaga aylanish darajasi ehtimolining oshishini anglatgan holda bu orqali bankda rentabellik ko'rsatkichlarining yaxshilanishiga sabab bo'ladi.

Mazkur ko'rsatkich bo'yicha Sberbankda holat nobarqaror tendensiyada bo'lib, uning hisobot davridagi o'rtacha darajasi 16,3 foizni tashkil qilgan. Ko'rsatkichning eng past darajasi 2021-yilda qayd etilgan bo'lib, ushbu yilda 7,9% dan iborat bo'lgan. 2024-yilda holat tahlil davridagi o'rtacha darajadan 1,5 foizli punktga past bo'lgan bo'lsada, 2023-yilga nisbatan 5,6 foizli punktga ko'tarilib sezilarli salbiy natija kuzatilgan.

13-rasmida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinadiki, Sberbankda kreditlar bo'yicha zaxiralarning ulushi yuqori darajada shakllanganligi bankdagi muammoli kreditlarning miqdori hamda uning kredit portfelidagi ulushi nisbatan yuqori darajada bo'lganligi bois kuzatilgan. Agar avvalgi rasm ma'lumotlaridan kelib chiqib tahlil qilinadigan bo'lsa, 2024-yilda bankda muammoli kreditlarning ulushi 0,3 foizli punktga oshgan bo'lsada, zaxiralar ulushi 0,25 foizli punktga kamaygan. Bu holat, bankda belgilangan tartibga doir zaxiralash talabi bajarilmaganda yoki muammoli kreditlar tarkibida nisbatan kamroq foizda zaxiralash talab etiladigan

²⁶ Xitoyning ICBC banki va Rossiya Sberbanklarining 2020-2024-yillardagi hisobotlari asosida tayyorlandi.

²⁷ Xitoyning ICBC banki va Rossiya Sberbanklarining 2020-2024-yillardagi hisobotlari asosida tayyorlandi.

kreditlar ulushi ortganda, yoki standart bo'lmagan kreditlar ulushi kamayganda kuzatilishi mumkin bo'ladi.

ICBC bankda esa, ushbu ko'rsatkich avvalgi ko'rsatkichdagi singari barqaror darajada bo'lib, tahlil davrida pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan, xususan, so'nggi uch yillikda pasayish darajasi 0,2 foizli punktni tashkil qilgan. Bu esa, bankda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash jihatidan har tomonlama ijobiy hisoblanadi.

Bankning moliyaviy barqarorligi va yaratilgan zaxiralarning barqaror koeffitsiyenti hamda yaratilish darajasining optimal holatiga baho berishda banklardagi kreditlar bo'yicha zaxiralarning muammoli kreditlarga nisbatini hisoblash to'g'ri bo'ladi.

Tadqiqotimiz davomida tijorat banklari kredit faoliyati bilan bog'liq holda banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy, uslubiy jihatlarini o'rganish va talqin qilish hamda mavjud amaliyotning milliy va xorijiy banklar misolida tahlil qilish orqali ushbu yo'nalishda quyidagi muammolar mavjud deb hisoblaymiz:

1. Har bir iqtisodiyotdagi tijorat banklari aktivlari, shu jumladan kreditlar portfelining sifatini yomonlashuvi bilan bog'liq holatlarga qaratilgan regulyator tomonidan ishlab chiqilgan tartib asosidagi ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralarni shakllantirish talablari mavjuddir. Va banklar tomonidan ushbu tartibga ko'ra yaratilishi lozim bo'lgan zaxiralarni shakllantirilish darajasi belgilangan talab darajasida bo'lmayotgani tahlillar davomida amaliyotda kuzatilayotganini ko'rishimiz mumkin. Bu holatning kuzatilishiga quyidagilar sabab bo'lib hisoblanadi: 1) banklardagi kreditlar tarkibida substandart kreditlar ulushining oshishi hisobiga ular bo'yicha belgilangan 10% lik zaxiralash talabidagi hisoblangan zaxiralash bo'yicha xarajatlar miqdorining oshishi natijasida banklarda sof foizli daromadlarning soliqqa tortilgungacha foydaga aylanish darajasi (yoki ehtimoli) pasayishiga olib kelmoqda; 2) agar bankda substandart tasnifidagi kreditlarning kredit portfelidagi ulushi yuqori bo'lsa-yu banklar tomonidan ular bo'yicha belgilangan tartibga ko'ra zaxiralash talabi bajarilsa bankda kreditlar bo'yicha yaratilgan zaxiralarning muammoli kreditlarga nisbati keskin darajada oshib ketishiga va shuningdek, bank balansidagi brutto kreditlar va netto kreditlar o'rtasidagi tafovutning ko'payishiga olib kelmoqda.

2. Bugungi kunda milliy iqtisodiyotimizda faoliyat yuritayotgan aksariyat banklarimizda, xususan davlat ulushi mavjud bo'lgan banklarimizda depozitlarning passivlardagi ulushi yoki aktivlarga nisbati holatini ijobiy darajada deb bo'lmaydi. Xususan tadqiqotimizda o'rganilgan 5-jadvalda "Mikrokreditbank" ATBda 2020-2024-yillarda depozitlarning aktivlarga nisbatining o'rtacha ko'rsatkichi 29,1% ni tashkil qilgan. Ammo, moliyaviy barqarorligi ijobiy holatda bo'lgan va tadqiqot davomida tahlil qilingan xorijiy banklardan Xitoy ICBC bankida depozitlarning aktivlarga nisbati ushbu davrda o'rtacha 76,4% ni va shuningdek, Rossiyaning Sberbankida jismoniy shaxslar va korporativ mijozlardan jalb qilingan muddatli

depozitlarning aktivlarga nisbati 2021-2024-yillarda o'rtacha 43,4% ni tashkil qilgan (bu yerda talab qilib olingungacha depozitlar hisobga olinmagan).

5-jadval

Banklardagi depozitlarning aktivlarga nisbati holati, foizda²⁸

Banklar	2020	2021	2022	2023	2024
<i>Umumiy depozitlarning aktivlarga nisbati</i>					
“Mikrokreditbank” ATB	23,2%	23,4%	32,2%	33,4%	33,3%
ICBC bank	76,4%	76,0%	76,4%	75,9%	72,3%
<i>Muddatli depozitlarning aktivlarga nisbati</i>					
Rossiya Sberbanki	n/f	40,7%	41,3%	42,8%	48,8%

Milliy iqtisodiyotimizdagi banklardagi mavjud holat quyidagilarni ifodalashi mumkin: 1) depozitlar ulushi past bo'lgan banklarda milliy iqtisodiyotdan depozitlar jalb qilishga yuqori darajada intilishning mavjudmasligi; 2) resurslarni jalb qilishda boqimandalik holatini shakllanganligi; 3) imtiyozli kreditlar ulushini bank barqarorligi uchun optimal darajasida boshqarilmasligi; 4) mustaqil resurslar topish asosida kreditlash mexanizmlarini mustaqil ravishda belgilash orqali samaradorlikni ta'minlash (yuqori daromad olish va riskni minimallashtirish) imkoniyatiga ega bo'lish hisobiga taklif qilinadigan tijorat kreditlar bo'yicha taklifni oshirish strategiyasiga ustuvorlikni yetishmasligi va boshqa shu kabilar.


3. Tijorat banklarida ajratilayotgan kreditlarning imtiyozli tartibda berilishining birinchi va asosiy belgilaridan biri bu foiz stavkasining past bo'lishi orqali namoyon bo'ladi. Bu shakldagi kreditlarni berishda avvalo uni resurslar bilan ta'minlash masalasini hal qilish kerak bo'ladi va bu asosan davlatning ijtimoiy himoya strategiyasi ijrosiga qaratilgan dasturlar asosida hamda bank tomonidan kreditlar jalb qilish orqali shakllanishi mumkin. Shu sababli banklar kredit portfeli tarkibida imtiyozli va tijorat kreditlarini ulushini boshqarishda yuqorida sanab o'tilgan resurslarning holati, ularning ulushi va ular uchun to'lanadigan ustama haq darajasiga tayanishi hamda shu asosida ishni tashkillashtirishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Ammo tadqiqot davomida o'rganilgan mahalliy banklarimizda bu jihatga e'tibor berilish holatini ijobiy baholab bo'lmaydi.

Ya'ni, “Mikrokreditbank” ATBda tahlil davrining 2021-2023 yillarida bankda imtiyozli kreditlar ulushi tijorat kreditlar ulushidan kam bo'lsada, ularning ulushi o'sib boruvchi tendensiyaga ega bo'lgan, 2024 yilda esa bankda imtiyozli kreditlar ulushi 64,6% ga yetgan. Ammo bank uchun arzon resurs manbalari sifatida jalb qilinadigan kreditlar bo'yicha majburiyatlarning bank kreditlariga nisbati 2020-2022 yillar davomida pasayib, 2022-2023 yillar oralig'i uchun ko'tarilish tendensiyasini qayd etgan. Bu holat nobarqaror ravishda amalga oshgan.

4. Milliy iqtisodiyotimizdagi aholi daromadlari tarkibida xorijda mehnat qilayotgan mehnat migrantlari tomonidan yuborilayotgan pul mablag'lari ulushining salmog'li darajada ekanligi banklar uchun o'z mahsulotlarini, xususan kredit mahsulotlarini taklif qilish imkoniyatini yoki iqtisodiyotda kreditlash hajmining oshirish va kengaytirish imkonini beruvchi ijobiy omil hisoblanadi. Ammo bugungi

²⁸ Tegishli banklarning yillik moliyaviy hisobotlarining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

kunda, kelgusida bankning mijozlari tarkibiga kiruvchi va banklar kredit portfelida alohida kreditlash mexanizmlari asosida berilgan turli xil turdagi kreditlar yig'indisi sifatida o'z o'rniga ega bo'lishi nazarda tutilayotgan mazkur kreditlarni oluvchilarning kreditga layoqatlilikini bir tomondan ular manfaati va ikkinchi tomondan bank manfaati uyg'unligi asosida baholash uslubiyoti mavjud emasligi kredit faoliyatidagi muammoli masalalardan hisoblanadi.



14-rasm. O'zbekistonda aholining umumiy daromadlari va xorijdan pul o'tkazmalari bilan bog'liq ko'rsatkichlar dinamikasi, trln so'mda²⁹

5. Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga kredit ajratishda ularning kreditga layoqatlilikini baholashda mavjud kreditlarining grafigi bo'yicha joriy holatdagi majburiyatlari asosida kredit yuki baholanadi. Shuningdek ular bilan birgalikda qarz oluvchilarning ham joriy holatdagi kredit majburiyatlari asosida moliyaviy imkoniyatlari baholanadi. Ammo banklar tomonidan ushbu holatda quyidagi jihatlar e'tiborga olinmaydi: 1) mijoz va birgalikda qarz oluvchilarning mavjud kreditlari bo'yicha kredit grafigiga ko'ra majburiyatlar summasi va yuki kelgusi davrlarda ortishi mumkinligi; 2) mijoz va birgalikda qarz oluvchilarning joriy holatda kafil bo'lgan kreditlar soni, summasi, muddati va unda ishtirok etuvchilar soni hamda ushbu kafilliklar asosida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan majburiyatlar hajmi va uning ehtimollik darajasi va shu kabilar.

Bu kabi holatlar mijozlarga ajratilgan kreditlarning o'z vaqtida va to'liq qaytishi kabilarga salbiy ta'sir ko'rsatishi hamda bankda muammoli kreditlar hajmi va ular bo'yicha zaxiralash xarajatlarini ko'payish ehtimolini ortishiga, shu bilan birga bankda samarasiz kredit faoliyati natijasida moliyaviy barqarorlikni pasayishiga sabab bo'lishi mumkin.

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Milliy statistika qo'mitalari rasmiy saytlari ma'lumotlari asosida mualliflik ishlanmasi.

XULOSA

Dissertatsiya tadqiqotini olib borish davomida tijorat banklari kredit faoliyatini takomillashtirish orqali ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq quyidagi xulosalar shakllantirildi.

1. Xorijiy davlatlar tajribasi asosida, jumladan Xitoyning ICBC va Rossiyaning Sberbanki kabi tijorat banklari faoliyatlarining moliyaviy ko'rsatkichlari amaliy holatini tahlil qilish asosida mahalliy tijorat banklari faoliyatida samarali kreditlash faoliyatini yo'lga qo'yishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

2. Mahalliy tijorat banklari kredit faoliyati bilan bog'liq amaliyotini tahlil qilish asosida, davlat ulushi bo'lgan banklarda substandart kreditlarni ulushini va ular bo'yicha zaxiralash normasini tartibga solish orqali banklarda foydani oshirish hisobiga ularning moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini, xususan bank aktivlari va kapitali rentabelliklarini ko'tarish imkoniyati mavjudiligi aniqlandi.

3. Tijorat banklari kredit faoliyati samaradorligini baholashda kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash xarajatlarini kreditlar bo'yicha olingan foizli daromadlarga bo'lish orqali shakllanadigan ko'rsatkich darajasi bilan o'lchash mantiqan to'g'ri ekanligi va amaliy jihatdan ahamiyatli ekanligi keltirib o'tildi. Ushbu usul asosida banklarning kredit faoliyatini baholash taklif etildi.

4. Xorijda mehnat qilayotgan mehnat migrantlarini moliyaviy resurslarga bo'lgan talabani qondirish va ularni qo'llab-quvvatlash, shu bilan birga banklarda kreditlash imkoniyatini kengaytirish maqsadida ushbu mijozlarga ipoteka krediti ajratishda belgilangan mezonlar asosida kreditga layoqatliligini baholash bo'yicha scoring tizimi ishlab chiqildi. Bu esa banklarda, risklarni va muammoli kreditlarni yuzaga kelishini oldini olishga xizmat qiladi.

5. Bank kredit portfeli tarkibida imtiyozli kreditlar ulushini tartibga solishda jalb qilinish bahosiga asosan passivlar tarkibidagi majburiyatlar shaklidagi kreditlar hajmiga mutanosiblikni saqlash, bunda ular tarkibidagi xorijiy valyutadagi kreditlar hajmi va ulushini mamlakatdagi devalvatsiya darajasi asosida tartibga solish bank kredit faoliyati samaradorligini ta'minlashga o'z ta'sirini o'tkazadi.

6. Banklarda passivlar tarkibida depozitlar ulushini oshirib borishi va bo'yicha minimal talabni o'rnatilishi: banklarda mustaqil resurslar jalb qilishni, kreditlash mexanizmi mustaqil belgilanadigan kreditlar hajmini oshirishni, iqtisodiyotda jamg'armalarni bank orqali aylanishini hamda milliy iqtisodiyot manfaatdorlikka mos talab va taklifga asosan foiz bahosi shakllanishini rag'batlantiradi.

7. Tijorat banklarida kelgusida muammoli kreditlarni yuzaga kelishini oldini olishda va aholi daromadlari barqarorligini ta'minlashda:

qarz yuki bo'yicha, mijoz daromadlaridan oila a'zolari jon boshiga to'g'ri keladigan minimal iste'mol xarajatlari miqdorini chegirgan holda ortgan qismiga mos keladigan (daromadning ushbu qismidan ko'p bo'lmagan) to'lov jadvali shakllantiradigan shartlar asosidagi kredit hajmini aniqlash tartibini;

to'lovga layoqatliligi, shuningdek qarz yuki baholanayotganda, uning kreditlar (yangi ajratilishi talab etilayotgan va mavjud kreditlar) bo'yicha nafaqat joriy balki kredit so'ndirish jadvaliga muvofiq kelgusi davrlardagi kredit majburiyatlari asosidagi kredit yukini tahlil qilishni;

agar mijozda to'lov qobiliyatini pasayishi yoki boshqa sabablarga ko'ra kreditning to'lov usullarini o'zgartirish zarurati va/yoki istagi paydo bo'lsa, bu bo'yicha shartnomaga o'zgartirish kiritish tartibini;

agarda mijozlarning daromad olish muddati kredit shartnomasi tuzilgan vaqtdagiga nisbatan o'zgargan va kreditni to'lash sanasidan keyingi sanalarga ko'chganda "To'lov sanasini o'zgartirish" xizmatini jismoniy shaxslarni kreditlash mexanizmlariga kiritish va amaliyotga joriy etish zarurligi asoslandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПОД
НОМЕРОМ PhD.03/2025.27.12.1.12.02 ПРИ ТЕРМЕЗСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ДЕНАВСКИЙ ИНСТИТУТ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА И
ПЕДАГОГИКИ**

ХИДИРОВ МУЗАФФАР АБДИМУМИНОВИЧ

**ПУТИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ
КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ПУТЕМ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИХ
КРЕДИТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

08.00.07 - Финансы, денежное обращение и кредит

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам**

Термез – 2026

Тема диссертации доктора философии (Doctor of Philosophy) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2025.1.PhD/Iqt5094.

Диссертация выполнена в Денавском институте предпринимательства и педагогики.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (www.TerDU.uz) и на информационно-образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Бозоров Руслан Хамдамович доктор экономических наук, доцент
Официальные оппоненты:	Бобокулов Тулкин Ибодуллаевич доктор экономических наук, профессор Пардаев Умиджон Уралович доктор экономических наук, доцент
Ведущая организация:	Ташкентский государственный экономический университет


Защита диссертации состоится на заседании научного совета по присуждению ученых степеней под номером PhD.03/2025.27.12.1.12.02 при Термезском государственном университете "7" 05 2026 года в 11⁰⁰. Адрес: 190111, город Термез, улица Баркамол авлод, дом 43. Тел.: (876) 221-74-55, факс: (876) 221-71-17, e-mail: termizdu@mail.uz

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Термезского государственного университета (зарегистрировано по номеру — 345). Адрес: 190111, город Термез, улица Баркамол авлод, дом 43. Тел.: (876) 221-74-55, факс: (876) 221-71-17, e-mail: termizdu@mail.uz

Автореферат диссертации был разослан "21" 04 2026 года
(Протокол реестра под № 6 от "21" 04 2026 года)



 У.Т. Тулаков,
Секретарь Учёного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор экономических наук
(DSc), доцент

 С.Дж. Гадоев,
Председатель Научного
семинара при Учёном совете по
присуждению ученых степеней,
доктор экономических наук
(DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В международной практике коммерческими банками особое внимание уделяется обеспечению эффективности кредитной деятельности среди общей деятельности банка по обеспечению финансовой устойчивости. Потому что в банках большая доля процентных доходов формируется за счет кредитной деятельности, и, соответственно, доля кредитов в структуре активов имеет высокий уровень. «В то время как отношение затрат на оценку убытков, которые можно увидеть по кредитам, к чистому процентному доходу в китайском банке ICBC составило 19,7% в 2024 году по сравнению с 2023 годом, снизившись на 1,2 процентных пункта, доля чистого процентного дохода в операционном доходе при вычете этих расходов в банке увеличилась на 0,3 процентных пункта до 77,5%»¹. «В Сбербанке России доля кредитов в активах снизилась с 64,9% в 2020 году до 72,0% в 2024 году, доля проблемных кредитов за соответствующий период снизилась на 1,3 процентных пункта до 3,4%, а доля созданных резервов в брутто-кредитах снизилась на 1,9 процентных пункта до 4,6%»². Данные обстоятельства обуславливают необходимость изучения опыта ведущих зарубежных стран по повышению финансовой устойчивости банков путем обеспечения эффективности их кредитной деятельности и оценки их методических и практических аспектов.

В мировой науке это свидетельствует о том, что обеспечение эффективности кредитной деятельности в банках является одним из актуальных вопросов сегодняшнего дня. Коммерческие банки осуществляют деятельность по расширению масштабов кредитной деятельности, обеспечению поддержания рентабельности кредитной деятельности на уровне не ниже других видов деятельности банка, обеспечению конкурентоспособности за счет снижения стоимости кредита за счет оцифровки кредитных услуг, оценке возможностей снижения рисков за счет диверсификации кредитов в различных направлениях, совершенствованию механизмов кредитования с целью снижения затрат на оценку возможных потерь по кредитам, созданию резервов по кредитам, ведутся научные исследования по таким аспектам, как установление норматива путем оценки оптимального уровня соотношения проблемных кредитов, повышение уровня показателей чистого процентного спреда и чистой процентной маржи за счет рационального формирования структуры пассивов в банке путем привлечения ресурсов в состоянии, соответствующем национальным экономическим интересам.

Поставленные задачи по обеспечению финансовой устойчивости коммерческих банков в Узбекистане путем совершенствования их кредитной

¹Данные отчета банка Китая ICBC за 2024 год (https://v.icbc.com.cn/userfiles/Resources/ICBCLTD/download/2025/Announcement20250425_1.pdf).

² Данные отчетности Сбербанка России за 2020-2024 годы (https://esg-library.mgimo.ru/publications/godovoy-otchet-sbera2024/?utm_source=google.com&utm_medium=organic&utm_campaign=google.com&utm_referrer=google.com)

деятельности направлены, прежде всего, на укрепление устойчивости банковской системы за счет повышения качества кредитного портфеля, усиления риск-ориентированного подхода и расширения целевого кредитования реального сектора. На практике последовательно реализуются меры по внедрению систем риск-менеджмента, соответствующих международным стандартам, сокращению доли проблемных кредитов, постепенному повышению коэффициентов достаточности капитала и ликвидности, а также совершенствованию нормативной базы, предотвращающей резкое снижение кредитного потока. В указе Президента Республики Узбекистан от 12 мая 2020 года № УП-5992 «О стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020-2025 годы» говорится: в качестве мер, обеспечивающих финансовую устойчивость банковской системы, перечислены такие меры, как «Обеспечение умеренных темпов роста кредитования и улучшение качества кредитного портфеля; активное участие банков на коммерческой основе в трансформации деятельности государственных предприятий и организаций; обеспечение наилучшего развития банковской последовательное развитие системы защиты депозитов на основе международного опыта; принятие мер по улучшению качества их кредитных портфелей за счет практического содействия неактивным кредитам»³. Поэтому целесообразно научное исследование методических основ, моделей эконометрической оценки и институциональных механизмов обеспечения финансовой устойчивости коммерческих банков в Узбекистане путем совершенствования их кредитной деятельности.

Данное диссертационное исследование в определенной степени может послужить реализации задач, поставленных в Указах Президента Республики Узбекистан от 30 января 2025 года № УП-16 «О государственной программе по реализации стратегии «Узбекистан — 2030» в год сохранения окружающей среды и зеленой экономики», от 21 февраля 2024 года № УП — 37 «О стратегии «Узбекистан-2030»» в рамках государственной программы «Года поддержки молодежи», от 11 сентября 2023 года № УП-158 «О стратегии «Узбекистан-2030»», от 28 января 2022 года № УП-60 «О новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы», в Постановлениях «О дополнительных мерах по повышению популярности банковских услуг» от 23 марта 2018 года № ПП — 3620, «О мерах по дальнейшему развитию и повышению устойчивости банковской системы Республики» от 12 сентября 2017 года № ПП-3270 и другими нормативными правовыми актами в данной области.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологии Республики Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики «Духовно-нравственное и культурно-просветительское развитие

³ Указ Президента Республики Узбекистан от 12 мая 2020 года № ПФ-5992 "О стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020-2025 годы".

демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Теоретические и практические, а также методологические аспекты обеспечения финансовой устойчивости коммерческих банков путем совершенствования их кредитной деятельности были изучены многими зарубежными учеными-экономистами, в том числе В.Рыбин, М.Пассель, О.Лаврушин, Т.Долгачева, Г.Ручкиной, О.Мосолова, Дж.Цинки, В.Усоскин, L.Wang, W.Lu, N.Malhotra, H.Do, T.Ngo, Q.Phung, A.Demin, M.Boyle, J.Crook, R.Hamilton, L.Thomas, S.Singh, B.Basuki, R.Setiawan⁴ и другие исследовали в своих научных исследованиях..

В научных и учебно-методических работах узбекских ученых-экономистов Ш.Абдуллаевой, О.Иминова, Б.Бердиярова, Дж.Исакова, И.Алимардонова, Б.Абдуганиева, К.Мухамеджанова, Д.Абдикаримовой, Ф.Холмаматова, А.Норова, Б.Усманова, О.Меликова, Ш.Абдуназарова, С.Гадоева, Н.Исмамова, Р.Махмудова, Г.Ходжаирова, Р.Базарова⁵ и других нашли отражение аспекты, касающиеся темы исследования.

⁴ Рыбин В.И. Кредит и расчеты в условиях реформы. — М.: Финансы, 1970.; Пассел М.А. «Заем, кредит, ссуда» — М.: «Деньги и кредит», №4, 1999.; Лаврушин, О.И., Афанасьева О.Н. Банковское дело: современная система кредитования: учебное пособие. — 7-е изд., перераб. и доп. — Москва: КНОРУС, 2021. — 358 с.; Долгачева Т. С. Развитие кредитования как фактора обеспечения воспроизводства в сельском хозяйстве. Автореферат дисс...канд.экон.наук: 08.00.05 / Т. С. Долгачева — Воронеж, 2015.; Банковское кредитование: учебное пособие / под ред. Г.Ф.Ручкиной. — Москва: Проспект, 2020.; Мосолова О.В. Развитие залогового механизма в системе кредитования. Автореферат на соискание ученой степени кандидата экономических наук. — Москва, 2013. — 24 с.; Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. пер. с англ.- Дж. Цинки, М. Алтина Бизнес букс, 2007-1018 с.; Усоскин В.М. «Современный коммерческий банк»: управление и операции / — М: ИПЦ . «Вазер-Ферро», 2004. — 78 с.; Wang, L.; Lu, W.; Malhotra, N.K. Demographics, attitude, personality and credit card features correlate with credit card debt: A view from China. J. Yecon. Psychol. 2011, 32, 179–193.; Do H., Ngo T., Phung Q. The effect of non-performing loans on profitability of commercial banks: Case of Vietnam //Accounting. — 2020. — Т. 6. — №. 3. — p. 373-386.; Demin A.N., Boyle M., Crook J., Hamilton R., Thomas L. Methods for Credit Scoring Applied to Slow Payers in Credit Scoring and Credit Control. Oxford: Oxford University Press. 1992; Singh S.K., Basuki B., Setiawan R. The effect of non-performing loan on profitability: Empirical evidence from Nepalese commercial banks //The Journal of Asian Finance, Economics and Business. — 2021. — Т. 8. — №. 4. — p. 709-716.

